ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

## *2024*

## 3/2-сан

***Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды***

***Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.***

Нөкис

# 3/2-сан *2024*

*ИЮНЬ*

***Шөлкемлестириўшилер:***

***Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги, ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы***



**Редактор:**
**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Вохид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ

## СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

**Атаматов А.С.** Олий таълим муассасаларида таълим сифатини бошқаришнинг инновацион хусусияти ........ 524

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

**Xudoyberganov J. S.** Kurashchilarning texnik va taktik tayyorgarligi ........ 531
**Tunyan A.A.** Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini sport o‘yinlari orqali jismoniy tayyorgarliklarini rivojlantirish ........ 535
**Abduraximov S.D.** Yosh yengil atletikachilarni yugurish bosqichlariga tayyorlash ........ 539
**Kazakov Sh.N.** Musiqaviy ritmik gimnastika bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari ........ 543
**Sultonov A.I.** Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini sport o‘yinlari orqali jismoniy tayyorgarliklarini rivojlantirish ........ 549
**Radjapov U.R.**Voleybolchilarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishda harakatli o`yinlarni ahamiyati ........ 553
**Шадиев А.Ё.** Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларининг жисмоний сифатларини шакиллантириш методикаси ........ 558
**Eshpulatov J.N.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy rivojlanishida harakatli o‘yinlarni tashkil etish ........ 563
**Boltayev Sh.** Klaster yondashuvi asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbga yo‘naltirish texnologiyasini takomillashtirish (voleybol sport turi misolida) ........ 568
**Ruziyev A. E.** Sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining vositalari ........ 573
**Shamuratov A. A.** Sportchining atletik sifatlarini rivojlantirish uchun mashqlar ........ 577
**Xujomov B. X.** Kurashchilarni tayyorlash jarayonida texnik taktik tayyorgarlikning ahamiyati ........ 581
**Yusupbayeva A. S.** Jismoniy sifatlarni harakatli o‘yinlar yordamida rivojlantirish metodikasi ........ 588
**Yaqubov A. M., Sapayev R.R.** Jismoniy tarbiya darslarida ta’lim tamoyillarini o‘rni ........ 595
**Эрдонов О.Л., Махмудов В.В.** Использование соревновательных форм физического воспитания в инклюзивном образовательном процессе студенческой молодёжи ........ 600
**Эрдонов О.Л.** Технология формирования спортивно - массовой и оздоровительной среды в ВУЗе ........ 606

# KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA KASBGA YO‘NALTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (VOLEYBOL SPORT TURI MISOLIDA)

**_Boltayev Sh._**
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,*
*“Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** jismoniy tarbiya va sport, voleybol sporti, yosh voleybolchilar, mashg'ulot jarayoni, texnika, mahorat, innovatsiya, klaster, usul.

**Ключевые слова:** физкультура и спорт, волейбольный спорт, юные волейболисты, тренировочный процесс, техника, мастерство, инновации, кластер, метод.

**Key words:** physical education and sports, volleyball sports, young volleyball players, training process, technique, skill, innovation, cluster, method.

Dunyoning ko‘pgina yetakchi ilmiy markazlari va olimlari tomonidan ta’lim klasterining modellarini yaratish, uning ilmiy-nazariy asoslari va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta’limga klaster yondashuvi muammosi umumiy mohiyatli bo‘lsa-da, uning amaliyotga tatbiq etilishi har bir fan tarmog‘i va klaster hududining o‘ziga xosligiga mos ravishda alohida yondashishni taqozo etadi. Chunki ta’lim klasterlarini fanning muayyan tarmog‘i va aniq geografik hududga muvofiq amalga oshirish uning samaradorligini ta’minlaydi. Darhaqiqat, har bir mamlakatda amalda bo‘lgan ta’lim siyosati mavjud zamonaviy va innovatsion talablardan kelib chiqqan holda unga mos keladigan ta’lim klasterlarining ilmiy-nazariy asoslari va modellarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi natijasida barcha sohalarga joriy qilinayotgan innovatsiyalarning maqsadi, pirovardida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga qaratilgan, tayyor andozalarni olish, ulardan ijodiy foydalanish yaxshiroq natija beradi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida xalqaro tajribada sinalgan va mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyat

kasb etuvchi innovatsion tajribalarni qo‘llashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsiyalardan biri “klaster modeli” bo‘lib, bugungi kunda u O‘zbekistonda ko‘proq agrar, to‘qmachilik va yengil sanoat sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Qisqa muddatlar ichida klaster modeli iqtisodiyotda istiqbolli innovatsion yo‘nalish sifatida e’tirof etildi va ushbu modelni boshqa sohalarda qo‘llash tajribalari amalga oshirilmoqda.

Metodologiyasi. Mamlakatimizda pedagogik ta’lim klasteri va uning amaliyotga tatbiqi muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida keyingi yillarda o‘rganilmoqda. Xususan, ta’lim klasteri pedagogikamizda integratsiya va uzluksizlik bilan bog‘liq yangi innovatsion yo‘nalish hamda uning amaliyotga tatbiq qilinishi pedagogik ta’limda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash omili ekanligi G‘.I.Muhamedov, Sh.Q.Mardonov, Sh.Botirova, X.Sultonov, S.Toshtemirova, N.Koshanova, Q.Mahmudovlarning tadqiqotlarida muayyan darajada yoritilgan. Muammoga yondosh bo‘lgan yo‘nalishlarda, xususan: uzluksiz ta’lim tizimining tashkiliy-pedagogik omillari, ta’lim tizimini mazmun va shakl jihatdan takomillashtirish mexanizmlari R.Eshchanov, G.Bobojonova, D.Bekchanov, M.Quronov, R.A.Mahmudov, R.SH.Ahliddinov, Y.N.Abdullayeva; ta’limda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash, ta’lim turlariaro integratsiyani kuchaytirish B.S.Abdullayeva, N.X.Raxmonqulova, D.SH.Yakibova, M.I.Toshpulatova, A.A.Jumanov, R.B.Adizov; fanlararo aloqadorlikni ta’minlash va ta’lim muassasalarining ilmiy-uslubiy hamkorligining tashkiliy jihatlari N.M.Abdullayeva, G.SH.Fayzullayeva, O.K.Abdurahmonovlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Ma’lumki, sport o’yinlarida, shu jumladan voleybol sport turida ham barcha texnik-taktik harakatlarni favqulotli va o’zgaruvchan vaziyatlarda tezkor shiddat asosida ijro etish talab qilinadi. Binobarin, voleybol sport turi bo’yicha mashg’ulotlarni o’tkazish, texnik-taktik harakatlarga o’rgatish jarayonida tezkorlik sifatini keskin o’zgaruvchan yo’nalishli mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Yosh sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirish uchun, sport mashg’ulotlarining qanday tashkil qilish va o’tkazishga bog’liqdir. Sport mashg’ulotlarini tashkil qilishda, sportchilarning shaxsiy xususiyatlarini o’rganish, texnik va taktik tayyorgarligini bilish zarurdir. shu bilan birgalikda yosh voleybolchilar misolida tezkorlik sifatini rivojlantirishda innovatsion mazmunli harakatli o’yinlar va ixtisoslashtirilgan pedagogik texnologiyalardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilgan fikrlarni to’laqonli amalga oshirish uchun murabbiydan kerakli bilim va mahorat talab qilinadi. Yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug’ullanishi uchun zamon

talablariga mos shart-sharoitlar yaratildi, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik hamda vatanparvarlik, ona-Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Hozirda umumta'lim maktab o'quvchilarini tayyorlashda o`quv-trenirovka mashg'ulotlarida ustuvor yo`nalishdagi bir tomonlama yo`naltirilgan yuklamalarni qo`llash uslublari eng samarli hisoblanadi. Ushbu uslublarni voleybol sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarni tayyorlashga joriy etish va maxsus tadqiqotlar olib borish muhim va dolzarb ahamiyatga egadir.




Voleybol sport turi o'z mohiyati, mazmuni va xususiyati bilan boshqa sport o'yinlaridan farq qiladi. Voleybol o'yini nisbatan kichik bo'lgan, ya'ni o'rtasidan teng ikkiga bo'lingan 18x9 metrli to'g'ri burchakli to'rtburchak shaklidagi maydonchada amalga oshiriladi.(1-rasm)

Zamonaviy voleybol turli o'yin malakalari va taktik kombinatsiyalarga nihoyatda boy bo'lib, o'ta katta shiddat va tezlikda o'tadi. Binobarin, voleybol sport turining yuqorida zikr etilgan o'ziga xos xususiyatlari o'yinchilardan mukammal takomillashgan texnik mahorat talab qiladi. Musobaqa o'yinlarida texnik mahorat qanchalik keng va tashqi ta'sirlarga nisbatan mukammal shakllangan bo'lsa, shunchalik g'alabani qo'lga kiritish imkoni ko'p bo'ladi.

**KLASTER metodi**




**Xulosa.** Jismoniy tarbiya va sport sohasida kutilayotgan har qanday innovatsion, ilmiy-texnologik taraqqiyot, bitiruvchi kadrlar salohiyati, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassis-liklarda rejalashtirilayotgan yangi fan yo'nalishlarining majmuaviy (diagnostik) nazorat va korreksion faoliyat mazmundorligi bilan bog'liq. Innovatsion yo'nalishda yaratiladigan

har qanday ishlanma sohaning ilmiy-metodik, boshqaruv, jismoniy tarbiya oʻqituvchilari va sport trenerlar uchun faoliyat dasturi boʻlib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston sharoitida oliy taʼlim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda taʼlim turlari oʻrtasida oʻzaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham taʼminlanishi zarur. Oliy taʼlimning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda taʼlim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari oʻrtasidagi tarqoqlik bugungi kunda uzluksiz pedagogik taʼlimni klaster rivojlanish modeliga oʻtkazish zaruratini taqazo etmoqda.

Voleybol sport turi bo’yicha mashg’ulotlarni o’tkazish, texnik-taktik harakatlarga o’rgatish jarayonida tezkorlik sifatini keskin o’zgaruvchan yo’nalishli mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Yosh sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirish uchun, sport mashg’ulotlarining qanday tashkil qilish va o’tkazishga bog’liqdir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan taʼlim siyosati va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda pedagogik taʼlim innovatsion klasteri quyidagi tamoyillar (tabiiy aloqadorlik, uzviylik va uzluksizlik, izchillik, zamonaviylik, yoʻnaltirilganlik, vorisiylik, maqsadning umumiyligi, manfaatlarning xususiyligi, oʻzaro nazorat), yoʻnalish (taʼlim, taʼlim vositalari, taʼlim va fan, taʼlim va ishlab chiqarish, taʼlimni boshqarish) va subyektlari (viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi, viloyat maktabgacha taʼlim boshqarmasi, umumtaʼlim maktablari, maktabgacha taʼlim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash hududiy boshqarmasi, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy taʼlim muassasalari va hokazo)ga ega boʻlishi lozim.

**Adabiyotlar:**


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/pdfs/5841063.
2. Mukhamedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., & Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. ISJ
3. Болтаев Ш.Э. Ёш волейболчиларни инновацион ёндашув асосида машғулот жараёнини ташкил этиш// // Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал– Нукус, 2022. – № 1. 87-92 б.
4. Sh.E.Boltayev, M.E.Choriyeva. Ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish masalalari// The Journal of Academic Research in Educational Sciences (ARES). – Vol. .3 – №7 , 2022. – P. 10-14.
5. Sh.E.Boltayev, Sh.A.Abdurahmonov, F.B.Qoʻziyeva. Umumtaʼlim maktab oʻquvchilarida klaster usulini qoʻllash orqali jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish// The Journal of Academic Research in Educational Sciences (ARES). – Vol. .3 – №12 , 2022. – P. 339-342.

6. Boltayev Shamshodjon. Vocational guidance of future physical education teachers based on the cluster approach // International bulletin of applied science and technology 2022. Vol. 2 Issue 12, pp. 261-263.

7. Boltayev Sh. Yosh voleybolchilarni texnik taktik harakatlarga oʻrgatishda innovatsion klaster metodini qoʻllash samaradorligi// “Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar”. Халқаро илмий-амалий конференция, Бухоро, 2022., 192-194 б.

**РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining kasbiy faoliyatida klaster usulini innovatsion yondashuv asosida qoʻllash, shuningdek, u orqali voleybolchilarning texnik mahoratini oshirish, oʻquv jarayonini samarali tashkil etish toʻg'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье представлена информация о применении кластерного метода в профессиональной деятельности будущих учителей физической культуры на основе инновационного подхода, а также о совершенствовании посредством него технического мастерства волейболистов, эффективной организации учебного процесса.

**SUMMARY**

This article provides information on the use of the cluster method in the professional activities of future physical education teachers on the basis of an innovative approach, as well as improving the technical skills of volleyball players through it, effectively organizing the educational process.